

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

X.Mamajonov

Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar 113

ADABIYOTSHUNOSLIK**X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova**

Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari 118

A.Abduraxmonov

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati 122

B.To'rayeva

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari 127

N.Karimova

Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi 134

P.Ro'ziboyeva, B.Karimov

Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi 138

N.Avazov

"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi 143

Sh.Axmedova

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari 151

N.Soatova

Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati 155

Sh.Turg'unov

Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida 162

TILSHUNOSLIK**Sh.Iskandarova, F.Musayeva**

Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir 168

D.Ganiyeva

Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi 171

Sh.Amonturdiyeva

Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari 176

N.Xoshimova

Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi 184

M.Hojiyeva

Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida 187

V.Giyosova

Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar 190

S.Ahmadaliyeva

Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida 193

H.Saipova

Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari 197

MATEMATIKA**T.Ergashev, D.Urinboyeva**

Ikkinchi tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida 201

B.Kadirkulov, M.Jalilov

Involyutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo'yilgan teskari masala 209

N.Murolimova

Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala 214

FIZIKA - TEXNIKA**X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov**

Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish 223

M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishni pedagogik-psixologik imkoniyatlari 228

OMON MATJON SHE'RIYATINING BADIY JIHATLARI

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ СВОЙСТВА ПОЭЗИИ ОМОН МАТЖОНА

ARTISTICS OF OMAN MATJON'S POETRY

Axmedova Shoxista Saydiyevna¹¹Axmedova Shoxista Saydiyevna

–JDPI tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Ushbu maqola Omon Matjon lirikasining o'ziga xos jihatlari va badiiyati masalasi tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada shoirning XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, she'riyatining o'zgacha qirralari ochib beriladi. Shoirning bir necha she'rlari tahlilga tortilib, ijodkorning "Seni yaxshi ko'raman" turkum she'rlarining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratiladi. Shoirning "Qo'shiq", "Ishq", "O'zbek go'zali", "Ayolga maqtov", "Sog'indim", "Qiyin muhabbat", "Seni yaxshi ko'raman" she'rlarini o'rganish asnosida, ularda ishqiy ifodalar oshiq tilidan o'ziga xos, milliy ruhda, inson qalbiga ozor bermaydigan tarzda, o'rinli istiora va tashbehlardan foydalangan holda, hayotiy asoslarning muhabbat talqinlariga moslashtiriluvchi tarzida san'atkorona ifodalanganligini aniqladik.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению особенностей и искусства лирики Омон Матжон. В статье раскрывается вклад поэта в развитие узбекской поэзии XX века, уникальные стороны его поэзии. Будут проанализированы несколько стихотворений поэта, акцентируя внимание на содержании авторского цикла стихов «Я тебя люблю». При изучении стихотворений поэта «Песня», «Любовь», «Узбекская красавица», «Хвала женщине», «Я скучаю по тебе», «Трудная любовь», «Я люблю тебя» мы обнаружили, что романтические выражения художественно выраженное на языке любви в своеобразном, народном духе, так, чтобы не ранить человеческое сердце, используя соответствующие метафоры и аллегории, адаптируя жизненные основы к трактовкам любви.

Abstract

This article is devoted to the study of the peculiarities and art of the lyrics of Omon Matjon. The article reveals the poet's contribution to the development of Uzbek poetry of the twentieth century, the unique aspects of his poetry. Several poems of the poet will be analyzed, focusing on the content of the author's series of poems "I love you". While studying the poems of the poet "Song", "Love", "Uzbek beauty", "Praise to the woman", "I miss you", "Difficult love", "I love you", we found that romantic expressions are artistically expressed in the language of love in a unique, national spirit, in a way that does not hurt the human heart, using appropriate metaphors and allegories, adapting the basics of life to interpretations of love.

Kalit so'zlar: Badiiy tafakkur, poetik tafakkur, lirik qahramon, lirik jozibadorlik, lirik ifoda, lirik qahramon, tushuncha, jarayon.

Ключевые слова: Художественное мышление, поэтическое мышление, лирический герой, лирическое обаяние, лирическое выражение, лирический герой, замысел, процесс.

Key words: Artistic thinking, poetic thinking, lyrical hero, lyrical charm, lyrical expression, lyrical hero, concept, process.

KIRISH. Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadigan vositadir. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, yozuvchi va shoirlarning ijodini o'rganishga keng yo'l ochildi. Jumladan, o'zbek she'riyatiga obrazli tafakkurning eng serjilo, ta'sirchan va lo'nda shakli bo'lgan she'riy asarlar hadya etgan Omon Matjon ijodi bugunda adabiyot ahliga yaxshi ma'lum. U ilk she'rlari bilan XX asrning 60-yillarida adabiyot maydoniga kirib keldi va she'riyat ixlosmandlari qalbidan munosib o'rin egalladi.

Uning dastlabki she'rlaridan tortib to bugungi kungacha yozgan ijod namunalari chinakam shoir, haqiqiy iste'dod egasi ijodining mahsulidir. Darhaqiqat,

Ko'p kezma daraxtzor bog'lar ichinda,
Daraxtlar dil do'sting bo'lolmas sening,
Chorlasang kelolmas, yonib qucholmas,
Sen faqat mening bo'l, meniki, mening[5;222]

deya kuylagan, shoir oddiy so'zlarning tizmasidan kutilmagan ma'nolar, favqulodda ta'sirchan, quyma misralar yaratib, she'rlari orqali bugunda u o'z ijodi bilan xalqniki bo'lganki, biz buni quyida imkoniyatimiz darajasida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Omon Matjon ijodini kuzatganimizda, uning turli mavzularda qalam tebratganini va qaysi mavzuga qo'l urmasin, maromiga yetkazib berganligini guvohi bo'lamiz. Shu o'rinda, shoir ijodini o'rgangan olima Jumagul Jumaboyevaning Omon Matjonga bergan ta'rifini keltirish joiz: "Tarixga suyanib davr, zamon va kelajak haqida fikr yuritish, bugunning muammolari yechimini axtarish, eng muhimi insonni tushunish va uni himoya etish shoir Omon Matjon she'riyatining ham asl mohiyatini, ham lirik qahramon bosh maqsadini belgilovchi hodisadir" [3; 177–178].

Darhaqiqat, shoir ijodi tag zamirida, original va obrazli ifoda usulida badiiy mantiq yotadi. Tabiiyki, bu mantiq lo'nda, har qanday sun'iy bezakdan xoli, ixcham shaklda yuzaga chiqadi. Bu shaklning voqe bo'lishida, avvalo, shoirning yuksak didi, tafakkuri va o'tkir nigohining uyg'un mutanosibligi alohida ahamiyat kasb etgan.

Shoirning o'zi "Tabiat buyuk bir shoir ekan: Yomg'irni yerga ranglar kamalagiga solib otadi...Yerga oshiqayotgan har uchqun qorga gul solib ulguradi. U chindan ham buyuk! Shogird bo'lsam edim unga..." [5;128], –deya orzu qilib she'riyatga kirib kelgani va bugunda uning o'zi o'zbek xalqining otashnafas shoiri darajasiga aylanib ulgurgani hech kimga sir emas.

Xo'sh, buning siri nimada, faqat orzudami? She'riyat nima? Shoirlikchi, shoirlikning asl mohiyati haqida, o'z qarashlarini ilm ahliga bildirgan adabiyotshunos olim, U.Hamdami shunday deydi: "...birinchi–she'riyat ijtimoiy hodisa sifatida insonning ruhiy mohiyatidan ibtido oladi. Ya'ni ijtimoiylik tashqaridan yopishtirilgan yorliq emas, balki insonning qonida mavjud mohiyat bo'lib, uning uzoq evolyutsion yo'lni bosib o'tishi natijasida bashariyat bugungi tamaddunni qo'lga kiritdi. She'riyat esa ana shu mohiyatning namoyon bo'lish shakllaridan biridir; ikkinchi–har qanday yaxshi she'r markazida o'zining quvonch va tashvishi, orzu va armoni bilan inson turadi; uchinchi – inson mohiyati turli davrlar she'riyatida turlicha jilo beradi. Chunki har bir davr alohida spetsifikaga ega ijtimoiy–psixologik muhit sifatida insonga – shoirga o'z ta'sirini o'tkazadi va bu ta'sir she'r shoir orqali she'rga ko'chadi" [9;35–36].

Albatta, buning asosini Omon Matjon ijodida ham ko'rish mumkin. Fikrimizning isboti sifatida shoirning quyidagi she'riga e'tiborni qaratamiz.

Birlik – ko'ngil bilan gulning birligi,

Birlik – vijdon bilan tilning birligi.

Birlik – to'qson ikki bo'li o'zbekning –

Ertadan umidvor elning birligi [5;78].

She'r mantig'i, mazmun–mohiyati jihatdan diqqatga sazovor. Shoir o'quvchini she'rni tushunishga, uning mag'zini chaqishga chorlaydi. U o'quvchining aqliy saviyasiga ishonadi. Chunki, she'rda shoir poetik asoslangan obrazlar kishi ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni, his–tuyg'u ifodasiga o'rab bergan. Shoirning orzu–tuyg'usi "to'qson ikki bo'li o'zbekning" biri kishini chin yurakdan istashida, chunki kuch birlikda ekanligini aqlan tafakkur etgan shoirning "qalbi mudom titrab turadi. Negaki, hech kim ko'rmagan sinoatni mushohada etar ekan, bu uning qalbida aks–sado beradi. Negaki, boshqalar eshita olmaydigan ohanglarni tinglar ekan, bu uning tafakkurini muttasil ravishda bezovta qiladi" [4;30]. Bunday holatni "She'riyat" she'rida ham ko'rishimiz mumkin:

She'riyat – hammaning o'zi o'zligi!

She'riyat, o'zingku, qalbdan qalblarga.

Ezgulikning beqiyos ganjin,

Ishonch qog'ozlarsiz eltib berguvchi! [5;96].

Ma'lumki, she'r asrlar davomida zoxir san'at sifatida insonning ruhiy ibtidosini kashf etishga intilib kelgan. To'g'rirog'i, poetik ifoda madaniyati odamzod orzu–istaklari, maqsad intilishlarini betakror estetik mezonda baholash garovidir. Shunday ekan, hamisha sir–sinoatlarga oshno nazm tabiatini tahlil hamda tadqiq etish kuchli ma'naviy ehtiyojlarni keltirib chiqaraveradi. Ayni paytda, mazkur istiloh badiiyatiga ta'sir o'tkazadigan ichki va tashqi omillarni ilmiy asosda o'rganish uni idrok etish hamda anglashga zamin hozirlaydi. Lirik tasvirni shakllantiradigan faktorlardan eng muhimi kechinma tabiati bilan chambarchas bog'liq.

Shoir tafakkuricha, she'riyat insonning o'zligi, qalb pokligi, noyob durdonasi. She'riyatni madh etar ekan, shoir uni "ezgulikning beqiyos ganji"ga mengzab tashbeh san'atidan mohirona

ADABIYOTSHUNOSLIK

foydalangan. Unga qarab shoshayotgan, intiqayotgan qalbdagi yuklarga faqat undan najot topishga ishonadi:

Shu ishonch tinchitmas takror,
Sirli sodiqligim bayrog'i shulki,
Har gal, har she'rimda, har tepganda qalb –
O'zim o'z qalbimning bo'lsam Kolumbi[5;96].

Omon Matjon she'riyatida yana bir o'ziga xos mavzu bu an'anaviy sevgi muhabbat mavzusi bo'lib, ushbu mavzu aks ettirilgan she'rlariga shoirning "Qo'shiq", "Ishq", "O'zbek go'zali", "Ayolga maqto'v", "Sog'indim", "Qiyin muhabbat", "Seni yaxshi ko'raman" kabi ko'plab she'rlarini kiritish mumkin. Shoirning bu mavzudagi she'rlarining boshqa shoirlarning shu mavzudagi she'rlaridan farqli jihatlari ham mavjud. Ya'ni, ishqiy ifodalar oshiq tilidan o'ziga xos, milliy ruhda, inson qalbiga ozor bermaydigan tarzda, o'rinni istiora va tashbehlardan foydalangan holda, hayotiy asoslarning muhabbat talqinlariga moslashtiriluvchi tarzda san'atkorona ifodalanadi. Ayniqsa, "Seni yaxshi ko'raman" turkum she'rlaridan:

Bahorda bog' na go'zal,
Qor tushsa tog' na go'zal.
Bu yoshlik chog' na go'zal,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan,
So'zsiz qarashlaring, holim so'rashlaring [5;226].

Shoir ushbu she'rda oshiqning dil izhori, jarohatlangan qalb iztiroblari, yorning vasfi kabilarni tarannum etgan. Zero, "Tabiat hodisalari o'zicha emas, balki o'zga ma'noda berilsa, unga inson ruhi, xarakteri singdirilsa, u ramzga aylanadi. Albatta, bunda ramz badiiylkdan mahrum bo'lib qolmasligi kerak"[8;109]. Darhaqiqat, ijodkor tomonidan qo'llanilgan poetik obrazlar tabiatdan olinsa va ularga singdirilgan mazmun chuqur ma'noli bo'lsa, inson ruhiyati va tabiatdagi o'xshashlik bir-birini boyitadi va to'ldiradi:

Quyosh tong oldida qizargan kabi,
G'unchalar qisinib yuz yorgan kabi
lymanib kelasan, ochilolmayсан:
"Anavilar bor–da, o'shalar..." deysan[5;226].

"Quyosh tong oldida qizargan kabi, g'unchalar qisinib yuz yorgan kabi" satrlarini o'qir ekanmiz, ularni benihoya jozibador misralar ekanligiga yana bir karra shohid bo'lamiz. Shoirning o'ziga xos uslubi yoki yutug'i oz so'zga ko'p ma'no yuklay olishda ko'rinadi. Nazdimizda, bu misralar ohangi tabiiy va quyma satrlardir. Shoir she'r yozar ekan, xayolidan o'tgan, yuragini jiz ettirgan hodisalarni xatga tushiradi. Zero, "Inson xayolidagi narsa uni o'z orqasidan yetaklaydi" [2; 109].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Shu nuqtayi nazardan qaraganimizda, shoirni "Ayolga maqto'v" she'ri mohiyat e'tibori bilan ishq–muhabbatning ohorli talqinidir. Shoirning lirik qahramoni shu qadar fusunkor, go'zalki unga teng kelish uchun butun tabiat manzalari o'ziga oro bersa–da, uning husniga yetisha olmay sarson. Shoir ayol madhi uchun dur-u gavhar so'zlar tizmasi ojizlik qilishini e'tirof etadi:

Sizday yasanmoqni istab, qish bitmay,
Izhorga lab juftlab har bir kurtagi,
O'riklar chiqdilar–bir tong to'la gul,
Nur kiydi jam'miki bog'lar yurtdagi[6;178].

Ko'rinib turibdiki, shoir o'z tuyg'usining tabiat va kishilar timsolida yashiringan holatini sekin–asta jonlantira borib, ularga turli ranglar beradi, ularni turli shakllarga soladi va shu tarzda o'quvchining ruhiy olamini mavjlantirib yuboradi. Demakka, poetik asarning ohanggi ham uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu usulda aksar hollarda shoir kechinmasi, lirik hayajon marom tabiatiga yuklanadi. Mazkur holatda kechinmaning mazmuniga qarab she'r ohangi tanlanadi. She'riy ohang nutq hodisasi bo'lsa–da, usiz asar mazmunini to'liq tushunish, shoir tuyg'usini his qilish qiyin. Binobarin, "She'riy ritm she'r yaratuvchining his va tuyg'ularini o'ziga xos bir tarzda ifodalashga yordam beruvchi nutq hodisasidir"[1;275].

Shoir ana shu nutq hodisasidan hamisha o'rinni foydalana olgan. Shu bois uning yaratmaqlari, o'zbek she'riyatining durdona namunalariga aylangan:

Shoirlarga yo'l bo'lsin!
Sizdagi tal'at,
Noziklik kimlarni o'yga solmagan?!
Oqqush, suvdan chiqmay, taranaverib,
Bejiz bir oyoqda uxlab qolmagan! [6; 178].

Hayot lirikaning suv tomiridir. "Lirik she'rda kechinma ko'pincha hayotiy hodisalar yoki predmetlar bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bunday hollarda o'sha predmetlar yoki hodisalar shoir kechinmalariga turtki bo'lgan omil bo'lishidan tashqari, she'rning asosiy ma'naviy estetik funksiyasini ifodalovchi poetik obrazga ham aylanadi" [7;208]. Kechinma har bir shoirda o'ziga xos kechadi. Shu sabab bir voqea-hodisaning o'zi turli mazmunli kechinmalar tug'irish yoki lirik voqelikka yuzaki qaraganda aloqasi bo'lmagan favkulodda poetik obrazlarda aks etishi ham mumkin.

Ayol nafasi - la ko'rkamdir dunyo,
Ayol armonicha bo'lmas hech armon.
Uning bir orzusi ushalguncha to,
Bedor tursa arzir zaminu zamon"[5;165].

Omon Matjon ijodi to'g'risida so'z ketar ekan, uning she'rlaridagi dard, falsafiylik o'quvchini e'tiborini tortmay qolmaydi. Binobarin, shoir lirikasi mavzusi xilma-xil bo'lib, bu ijodkorning ko'p qirrali qalam sohibi ekanidan dalolat beradi.

"Ijodkorning va ayniqsa, lirik shoirning dardi, o'zgacha, shaxsiy va xususiy, tor doiradan chiqib ketgan dard. Ijodkor o'z dardi orqali o'zgalarning dardlarini ham ifodalaydi. U ko'proq boshqalarning dardlarini o'z dardiga aylantirgan, boshqalarga qaraganda umumga nisbatan darddoshlik tuyg'usi o'ta rivojlangan va o'z san'ati, jonbaxsh, shifobaxsh so'zi bilan inson dardlarini yengillatishga chog'langan hamda shuning ulkan ma'suliyatini yaxshi anglagan shaxs. Dardlar bu olamda qarama-qarshiliklardan tug'iladi. Ular ziddiyatlarning natijasi. She'r ziddiyatlarning keskin dramtizmini aks ettiradi. Dramatik taranglik esa – she'rning dardlaridir"[10;124], – deb yozadi mashhur adabiyotshunos I.G'afurov. Mana shu dard Omon Matjon she'rlarining bosh motivini tashkil etdi.

XULOSA. Umuman olganda, Omon Matjon ijodi XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotida o'z o'ringa va o'z so'ziga ega ijodkor. Chinakam san'atning sehr-u jodusi shundaki, unda har gap azaliy umumbashariy haqiqatlar yangi-yangi hayotiy vaziyatlarda bir-biriga o'xshamaydigan insoniy xarakterlar, insoniy taqdiralar orqali ochiladi. Shoirning lirikasini tashkil qilgan falsafiy she'rlari, ayniqsa tarix, zamon mavzularini yoritish barobarida o'ziga xos jozibador, xalqchil, samimiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sabab, u o'z kitobxonlarini doimo she'riyat bo'stoniga chorlab turadi va eski haqiqatlar kitobxonga har gal yangiday tuyiladi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha–o'zbekcha izohli lug'ati. Hotamov N., Sarimsoqov B. tahriri – T.: O'qituvchi, 1983. (He-Uzbek comment dictionary of literary terminals. Hotamov N., Sarimda B. edit - T.: Teacher, 1983.)
2. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir.–Toshkent.: Yangi asr avlodi, 1978.(Jalaliddin Rumii. Inside in Ichn.-Tashkent.: The new century generation, 1978.)
3. Jumaboyeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati.– T.: "Fan" nashriyoti, 2004. (Jumaboyeva J. XX centuries Psychological image creature in Uzbek poetry.- t.: "Science" Publishing House, 2004)
4. Nurboy Jabbor. Zamon mezon. She'riyat.– T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,. 1996.(Nurboy Jabbor. Time criteria. Poetry.- T.: T.: Gulam named after literature and art ,. 1996)
5. Omon Matjon. Iymon yog'dusi. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,. 1996. (Omon Matjon. Faith. - T.: Gulam Name of Literature and Art ,. 1996)
6. Omon Matjon. Diydor aziz. – T.: Noshir,. 2011.(Omon Matjon. Diydor is dear. - T.: Publisher ,. 2011)
7. Sharafiddinov O. "Hayot bilan hamnafas". – T.: Yosh gvardiya, 1983.(Sharafiddinov O. "Happy life". - T.: Young Guard, 1983.)
8. Sharopov.A. "Olamlar ichra olamlar". – Toshkent.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1978.(Sharopov.A. "Worlds in the worlds". - Tashkent.: Gulam named after Literature and Art, 1978.)
9. Ulug'bek Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati. T.: Adib n. 2012. (Ulugbek Hamdam. New Uzbek poetry. T.: Addib n. 2012)
10. diss..natlib.uz

(Taqrizchi: A.Sabirdinov – filologiya fanlari doktori)